

ISSN 2181-5887



THERAPEUTIC HERALD OF UZBEKISTAN



O'ZBEKISTON
TERAPIYA AXBOROTNOMASI

ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЙ ВЕСТНИК
УЗБЕКИСТАНА

№ 3, 2024

«ICHKI KASALLIKLARINING DOLZARB MUAMMOLARI»

XALQARO TERAPEVTLAR FORUMI

TEZISLARI

2024 YIL 20–21 SENTYABR, TOSHKENT

ТЕЗИСЫ

МЕЖДУНАРОДНОГО ФОРУМА ТЕРАПЕВТОВ

«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАБОЛЕВАНИЙ ВНУТРЕННИХ ОРГАНОВ»

20–21 СЕНТЯБРЯ 2024 ГОДА, ТАШКЕНТ

bemorlarda QDsiz bemorlarga qaraganda kunduzgi SAB ($14,2 \pm 3,77$ vs $14,2 \pm 5,1$ mmHg, $p=0,043$), kunduzgi DAB ($10,2 \pm 3,27$ vs $11,2 \pm 4,7$ mmHg, $p=0,020$) variabelligi ham yuqori ekanligi aniqlandi. Tungi SAB ($11,1 \pm 5,86$ vs $12,1 \pm 5,4$ mmHg, $p=0,077$) va tungi DAB ($9,6 \pm 6,26$ vs $9,43 \pm 4,7$ mmHg, $p=0,109$) variabellik ko'rsatkichlari guruhlar orasida ishonchli farq qilmadi. Qon bosimni tungi pasayish darajasi (TPD) bo'yicha guruhlararo farq topilmadi: dipper SAB ($21,6\%$ vs $20,7\%$, $\chi^2=0,024$, $p=0,877$), non-dipper

SAB ($56,7\%$ vs $50,6\%$, $\chi^2=0,748$, $p=0,388$), night piker SAB ($21,6\%$ vs $26,0\%$, $\chi^2=0,534$, $p=0,466$), over dipper SAB (0% vs $1,3\%$, $\chi^2=1,3$, $p=0,253$) dipper DAB ($21,6\%$ vs $29,8\%$, $\chi^2=1,76$, $p=0,185$), non-dipper DAB ($54,0\%$ vs $48,0\%$, $\chi^2=0,72$, $p=0,397$), night piker DAB ($24,3\%$ vs $19,4\%$, $\chi^2=0,642$, $p=0,423$), over dipper DAB (0% vs $1,3\%$, $\chi^2=1,309$, $p=0,253$).

Xulosa. QDli bemorlar qon bosimining sutkalik profilini buzilganligi bilan ajralib turadi, bu esa yurak-qon tomir asoratlarning xavfini oshiradi.

TIREODIT O'ZGARISHLARNI KO'KRAK BEZI SARATONIDA O'RGANISH NATIJALARI

AZIMOVA M.A., NASIROVA X.K.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent, O'zbekiston

Tadqiqot maqsadi. Klinik va morfologik tadqiqotlarni retrospektiv tahlil qilish orqali KBS bemorlarida QBdagi funksional o'zgarishlar darajasini aniqlash, funksional holatiga baho berish va o'zgarishlarni tuzatish usullarini aniqlash.

Material va usullar. Tadqiqot predmeti KBSdagi QB funksional holatining quyidagi gradatsiyalari bo'ldi: hajmi va o'lchami, parenxima tuzilishi, gormonal holat ko'rsatkichlari, parenximaning mahalliy sitomorfologik tuzilishi. Tadqiqot obyekti KBS tasdiqlangan 37 bemor: II va III bosqichlar. Bemorlarning yoshi 34 yoshdan 68 yoshgacha, o'rtacha $53,4 \pm 0,3$ yil. Bemorlarga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yorlar bo'yicha o'smaga qarshi terapiya o'tkazildi: poliximoterapiya – 31, gormon terapiyasi – 5 va immunokimoterapiya – 2. Ultratovush, MSKT, biokimyoviy ko'rsatkichlar va qalqonsimon bez gormonlarini o'rganish, sitomorfologiya. O'rganilayotgan gradatsiyalarni o'rganish uchun qalqonsimon parenximaning ingichka igna biopsiyasidan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. Ko'krak bezi saratoni bosqichiga, gistologik turiga va o'sma o'sish jarayonining differentsiatsiyasiga qarab qalqonsimon

bez konturlarning o'rtacha hajmi va tekisligi o'zgarganligi aniqlandi. Shu bilan birga, statistik jihatdan sezilarli darajada qalqonsimon bez funksiyasi (gormonlarni o'rganish asosida) 23 dan 35% gacha pasayishi fonida, qalqonsimon bez parenximasida bir tekis bo'lmagan yangi hududlar paydo bo'lishi aniqlandi. Ko'pincha bu o'zgarishlar 50 yoshdan oshgan va polikimoterapiya (+immunoterapiya) olgan bemorlarga xosdir. Aksincha, ko'krak bezi saratonining gormonga bog'liq shakli bo'lgan bemorlarda o'ziga xos terapiya fonida qalqonsimon bezdagi funksional o'zgarishlar ahamiyatsiz bo'lib chiqdi va maxsus tuzatishni talab qilmadi. 17 nafar bemorda o'tkazilgan ingichka igna biopsiyalarini o'rganishda mahalliy o'zgarishlarning sitomorfologiyada polimorfizm va atipik o'zgarishlar yo'qligini ko'rsatdi. Ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan 8 bemorda poliximoterapiya paytida parallel ravishda tugunli bo'qoq rivojlangani kuzatildi.

Xulosa. Olingan natijalarning tahlili qalqonsimon bezdagi mahalliy o'zgarishlarning ko'krak bezi saratoni bosqichiga va amalga oshirilgan terapiya turiga bog'liqligini ko'rsatdi.

ARTERIAL GIPERTENZIYA PROFILAKTIKASINING TURLI AHOLI GURUHLARIDA KUCHAYTIRISH JIHATLARI

KALANDAROV D.M., MAMASOLIYEV N.S., NISHONOVA N.A., MAMASOLIYEV Z.N.

RSHTYOIM Andijon filiali, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O'zbekiston

Tadqiqot maqsadi. Fermerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi aholi orasida yengil (EAG), o'rtacha og'ir (O'OAG) va og'ir arterial gipertenziyaning (OAG) tarqalishi jihatlarini o'rganish va baholashdan iborat bo'ldi. Shu bois mazkur yo'nalishda zamonaviy populatsiyada ilmiy tadqiqotlarni bajarish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Material va usullari. Fermerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi aholining reprezentativ guruhida (2182 ta) epidemiologik tadqiqot bajarildi: $\geq 18 - 70$

yoshli ayollar 1113 nafar (50,5%) va erkaklar 1069 nafar (49,5%). YeAG, O'OAG va OAG Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari (2020), Rossiya (2020) va Yevropa (ESC, 2020) mezonlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari. AGning yengil, o'rta og'ir va og'ir shakllari Fb ShPda alohida ajratirib o'rganildi hamda baholandi. Ularning aniqlanish chastotalari $\geq 18-70$ yoshlilarda quyidagi ko'rsatkichlar bilan tasdiqlandi: YeAG – 5,6% (erkaklarda – 6,6 va ayollarda – 4,6%), O'OAG – 6,2% (erkaklarda – 6,2%